Turk-sug‘d munosabatlarining ma’naviy va madaniy hayotda namoyon bo‘lishi

Azimova Farangis Shokirovna

Markaziy Osiyoning sug‘diy va turkiy etnoslari orasida zardushtiylik e’tiqodiko‘p asrlik (mil. avv. I ming yil. - mil. VIII-IX asrlargacha) tarixga ega. Sug‘diylarning yetakchi dini zardushtiylik, Sug‘d kolonial harakati orqali mintaqaga tarqaldi. Xitoy sayyohi va buddaviy rohibi Syuan Szan (VII asr): «turklar olovga e’tiqod qilishar edi. Shu bois ular yog‘och taxtdan foydalanmasdilar», - deb yozganida ehtimol turkiylarning zardushtiylikka bo‘lgan e’tiqodini nazarda tutgan.

Xoqonlik davrida Sug‘d vohasining boshqaruv tizimida yuz bergan o‘zgarishlar bu yerdagi voha hukmdorliklarga tegishli tangalarda ham o‘z aksini topadi. Kesh hukmdorligi istisno, vohaning yirik hukmdorliklari – Samarqand, Panch va Naxshabning tanga-pul tizimida sug‘diy va qadimgi turkiy an’analar o‘zaro sintezlashgani seziladi. Ayniqsa, Samarqand tangalarida “xoqon” unvoni o‘rin olishi bir tomondan bu yerning xoqonlik bilan chuqur siyosiy munosabat o‘rnatganining ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqa hukmdorliklarga nisbatan Samarqandning siyosiy mavqyei yuqori bo‘lganidan darak beradi. VII asrning ikkinchi yarmiga kelib Panch hukmdorligining siyosiy mavqyei oshgani nafaqat yozma manbalarda, balki tanga-pul tizimida ham o‘z aksini topadi. Sug‘dda xoqonlik hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillardayoq Naxshabda sulola almashinuvi yuz bergan bo‘lib, bu holat ushbu hukmdorlik tangalari orqali ham o‘z ifodasiga ega[1].

568 yilda Yettisuvga kelgan Vizantiya elchisi Zemarxning yozishicha, elchilar Istami yabg‘u qarorgohii oldida Sharqqa qarab cho‘kkalab o‘tirganlar. So‘ngra bo‘ri kallasi tasviri tushirilgan bayroqqa ta’zim bajo keltirib, yonib turgan olov bilan poklanganlar. Shundan so‘nggina Istami yabg‘u o‘tirgan ulkan chodir - qarorgohiga kirganlar. Bunda u turk-sug‘d umumiyligining bir jihatini - turklarning tangrichilik an’anasi: Sharqqa qarab o‘tirish va ko‘k bo‘ri totemiga e’tiqod hamda sug‘diylarning zardushtiylikka xos bo‘lgan muqaddas olov orqali poklanish udumlari sintezini ko‘rgan edi.

Markaziy Osiyoning shimoli-sharqida makon topgan muhojir sug‘diylar asrlar davomida mahalliy turkiylarga zardushtiylikni targ‘ib kilib, birgalikda zardushtiylik ibodatini amalga

[1] Сулаймонова С. Суғд воҳасида Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқаруви: тарих фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Қарши: 2022. – Б. 24

oshirganlar. Sharqiy Turkistonda Sug‘ddagi kabi, ehrom bunyod etilib, kohinlar diniy amallarni bajo keltirishgan. Turkiylar samimiy va bag‘rikeng bo‘lgani bois, biror-bir manbada tangrichilik e’tiqodidagi turkiylarning bu jarayonga qarshilik qilinganligi haqidida ma’lumot uchramaydi.

Sug‘diylar orqali zardushtiylik hatto Xitoyga ham kirib bordi. Uning elementlari Xitoy tasviriy san’atida o‘z aksini topdi. Dunxuandan topilgan R 3929 raqamli hujjatda, sug‘diylar olovga sig‘inishlari va ularning ibodatxonalari borligi zikr etiladi. Bundan tashqari Shimoliy Vey sulolasi poytaxti Loyandagi muhojir sug‘diy savdogarlar o‘zlariga zardushtiylik ibodatxonasi barpo etganlar[2]. Hatto xitoyliklar va ularning ma’muriyati ham sug‘diylarning diniy e’tiqodlariga mone’lik ko‘rsatishmagan.

Birinchi Turk xoqonligiga oid Bug‘ut yodnomasini bitgan shaxs zardushtiy bo‘lib, matn tuzishda zardushtiylik atamalariqo‘llangan[3]. Mug‘ arxivining A-17, V-15 va 1.1 hujjatlarida zardushtiylik bilan bog‘liq jumlalar uchraydi. 1.1 hujjatidagi «yaratuvchi xudo nomi bilan» jumlasi o‘rta forsiy zardushtiy matnlaridagi «yaratuvchi Ormo‘zd nomi bilan» jumlasiga mos keladi.

Mug‘ arxivining 1.1 raqamli hujjatidagi arablar vakili Abdurahmon ibn Subhning Divashtichga maktubida (720-721 yillar voqyealari) quyidagilar qayd etilgan: «Mana kecha Nijitak keldi hamda kohin Ko‘rchi (keldi).... Axir o‘zing bilasanki, Nijitakva kohin Ko‘rchi sening eng yaxshi (komil) do‘stlaringdir ... «, - deyiladi. Maktubda nomlari keltirilgan Devashtichga yaqin shaxslar: sug‘diy Nijitak, turkiy kohin - vag‘npat Ko‘rchi zardushtiy kohinlari bo‘lishgan. Xususan, Kohin Ko‘rchi zardushtiylikni qabul qilgan turkiylardan bo‘lib, kohin - vag‘npat darajasiga ko‘tarilgan va turkcha Ko‘rchi deb yuritilgan. Aytish mumkinki, zardushtiylikni shu yurtda yashagan sug‘diylar va turklarning umumiy dini bo‘lgan. Qolaversa, Sug‘d jamiyatida zardushtiylik ibodatxonasi vakillarivag‘npatlarning nufuzi baland bo‘lgan. Biroq zardushtiylik turkiylar orasida yoppasiga tarqalmagan. Chunki,Sharq xristianligi - nestorianlikka ham e’tiqod qilishgan[4].

Sug‘ddagi turkiylar hayotida zardushtiylikning ahamiyatini Mug‘ arxivining Nov. 3 - «Sug‘dcha nikoh guvohnomasi» va Nov. 4 - «kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari»ga oid hujjatlar aks ettiradi. Mazkur hujjatlarda sug‘diy qiz - Dug‘dg‘uncha

[2] Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. -2002. -№2. –Б. 42-43
[3]Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийский надпис из Бугута // СНВ. - №10. 1971. –С. 98.
[4]Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 33-37.

(laqabi Chata) - Viyusning qizi va turkiy Uttakin (laqabi Nidon) nikohi qayd etilgan. Hujjatlarda yigit va qizning qaysi din yoki millat vakili ekanligi qayd etilmagani ham Sug‘d jamiyatiga xos tolerantlik belgisi edi.

Hujjatdagi Dug‘dg‘uncha yettisuvlik sug‘diylardan, Uttakin esa, Sug‘dning turkiy nasabli mansabdorlaridan bo‘lgan. Nov. 3 ning mantiqiy davomi Nov. 4 da Uttakin kelin oldidagi o‘z majburiyatlarini zardushtiylikning bosh ilohlaridan biri Mitra oldidagi qasam bilan mustahkamlab: «Mitra guvohligida quyidagilarni zimmamga olaman deydi. Bu hujjat tuzilgan sana 710 yilning 25 martida Sug‘d kalendari bo‘yicha «Tarxun podshoning 10 (X) yili, masvug‘ich oyi, osmonruch kuni tuzilgan». Uttakin va Dug‘dg‘uncha nikohi azaliy turk-sug‘d munosabatidagi bir ko‘rinishi bo‘lib, bu nikoh uchun na etnik va na diniy mansublik monelik qilmagan. Bu Sug‘d jamiyatidagi diniy konfessiyalararo o‘zaro tushunish va e’tirof ruhi hukmron bo‘lganidan dalolatdir[5].

Mug‘ arxivida framandar Utt shaxsi bilan bog‘liq ko‘plab hujjatlar uchraydi. Sug‘d, jumladan, Panch viloyatida yuqori lavozim egasi bo‘lgan Uttni ham zardushtiylikni qabul qilgan turkiy edi, deyish mumkin.

Turkiy va sug‘diylar aralash yashagan hududlardan topilgan ostadonlar misolida bu ikki qavmning zardushtiylik ta’sirida urf-odati ham sintezlashganligini kuzatamiz. Hatto O‘rta Osiyozardushtiyligi Sosoniylar Eroni zardushtiyligidan farqlagan. Eronda zardushtiylik rasmiy davlat dini maqomida, qat’iy talablar asosida rivojlangan. O‘rta Osiyoda esa, diniy tolerantlik negizida unga amal qilingan. Sug‘d zardushtiyligi «mazdachilik» yoki mazdayasna dini deb yuritiladi. O‘rta Osiyoxalqlari e’tiqodining asosi bo‘lgan bu diniy qarashlar tizimida Axuramazda, Mitra, Nana kabi ilohalarga e’tiqod alohida o‘rin tutgan. Sug‘d jamiyati etnik va diniy murosaning eng adolatli yo‘lidan borgani bois, biror-bir manbada Sug‘dda ro‘y bergan etnik va diniy mojaro xaqida ma’lumot uchramaydi. Xususan, Xitoy doimo o‘z buddaviy rohiblarini O‘rta Osiyoga yuborib turgan. Syuan Szandan tashqari, Chjang Chyan, Ban Chao, Fa Syan, Shyuan Zang By Kung kabi rohiblar turli maqsadlarda O‘rta Osiyoga tashrif buyurishgan. Qolaversa, mintaqada keng tarqalgan dunyo dinlaridan biri buddavviylik edi. Bu dinning antik davr va ilk o‘rta asrlarda O‘rta va Markaziy Osiyoga yoyilganligini qator arxeologik ashyolar va yozma yodgorliklardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi[6].

[5] Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. –Тошкент: Фан, 1990. –Б. 15-18.
[6] Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 12-19.

Sug‘d jamiyatining turkiy dunyo bilan uzviyligi mintaqadagi keyingi etnomadaniy jarayonlarning rivoji va holatini belgiladi. Turk xoqonligi davrida sug‘diy va turkiy madaniyatlar bir-birini to‘ldirib, betakror ma’naviy va madaniyat meros vujudga keldi. Bu o‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlar, qolaversa, turk-sug‘d simbiozi mahsuli edi.

Shu o‘rinda xulosa qilish mumkinki, Buyuk ipak yo‘lidagi uzluksiz aloqalar o‘zaro ma’naviy va madaniy almashinuvlar uchun qulay imkoniyat yaratdi. Sug‘ddagi dinlararo murosa turk-sug‘d munosabatlari darajasida yanada kamol topdi. Sug‘diylarning yetakchi dini zardushtiylikka turkiylarning xayrixohligi ham alohida e’tiborga loyikdir. Xususan, Sharqiy Turkistondagi zardushtiylik ibodatxonalari va ulardagi vag‘npat - kohinlar faoliyati, «Bug‘ut yodgorligi» kotibi sug‘diy-zardushtiy va xoqon turk-buddaviyning samimiy munosabatlari, Mug‘ arxivining 1.1 raqamli hujjatidagi Sug‘diy Nijitak va turkiy kohin Ko‘rchining Devashtich vakili sifatidagi tinchlikparvarlik missiyasi, Nov. 3 va Nov. 4 hujjatlaridagi sug‘diy qiz - Dug‘dg‘uncha, turk yigiti Uttakin o‘rtasidagi nikoh, framandar Uttning Panch boshqaruvdagi ishtiroki turk-sug‘d munosabatlarida etnik va diniy murosaning eng adolatli yo‘li tanlanganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari turkiylar va sug‘diylar hayotida buddaviylik, xristianlikning nestorian oqimi, moniylik kabi dinlar ham munosib o‘rin topdi. Natijada sug‘diy tilli betakror buddaviy, xristian va moniy mazmundagi boy yozma meros bizgacha yetib keldi. Bu yozma meros asrlar davomida shakllangan yozuv madaniyati mahsuli edi. Sug‘diy yozuv turkiy xalqlarning yozuv madaniyati shakllanishiga zamin yaratdilar.

Адабиётлар руйхати:

Сулаймонова С. Суғд воҳасида Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқаруви: тарих фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Қарши: 2022. – Б. 24

Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. -2002. -№2. –Б. 42-43

Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийский надпис из Бугута // СНВ. - №10. 1971. –С. 98.

Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 33-37.

Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. –Тошкент: Фан, 1990. –Б. 15-18.

Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 12-19.